

Boltayev Bobir Baxtiyorovich

Buxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası dotsenti, tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUSTAQILLIK YILLARIDA MUZEYLAR FAOLIYATI VA TURIZM

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlari hamda muzeylar faoliyati orqali turizm salohiyatini oshirish muammo va echimlar ochib berilgan. Shu bilan birgalikda yurtimizdagi qadimiy va navqiron Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarning davlatimizning turizm sohasidagi islohotlarni amalga oshirishdagi tutgan o'rni va roli tahlil qilingan. Bundan tashqari, davlatimizda hozirgi kunda o'z faoliyatini jadal suratlarda takomillashtirib borayotgan zamonaviy muzeylarning turizm sohasini rivojlantirishdagi ahamiyati ham yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, muzeylar, infratuzilma, turist, forum, mablag', ichki turizm, fond, ekskursiya, xalqaro, umumjahon, marshrut, havo shari, obida, ekspozitsiya.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУЗЕЕВ И ТУРИЗМА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация: В данной статье описаны меры по развитию туристской инфраструктуры Республики Узбекистан, а также проблемы и пути решения по повышению туристического потенциала за счет деятельности музеев. Вместе с тем, проанализирована роль древних и исторических городов нашей страны таких как Самарканд, Бухара и Хивы в реализации реформ в сфере туризма нашего государства. Кроме того, особо отмечена роль современных музеев в развитии туристической сферы нашей страны.

Ключевые слова: туризм, музей, инфраструктура, турист, форум, фонд, внутренний туризм, фонд, экскурсия, международный, всемирный, маршрут, воздушный шар, памятник, экспозиция.

ACTIVITIES OF MUSEUMS AND TOURISM IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation: This article describes measures for the development of the tourist infrastructure of the Republic of Uzbekistan, as well as problems and solutions to increase the tourism potential through the activities of museums. At the same time, the role of ancient and historical cities of our country, such as Samarkand, Bukhara and Khiva, in the implementation of reforms in the field of tourism of our state is analyzed. In addition, the role of modern museums in the development of the tourism sector of our country was emphasized.

Keywords: tourism, museum, infrastructure, tourist, forum, fund, domestic tourism, fund, excursion, international, world, route, balloon, monument, exposition.

Kirish. Har bir davlat taraqqiyot sari odimlar ekan, doimo tarixiga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, ananalar hamda qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy hol. Bu borada esa muzeylarning o'rni beqiyos. Chunki ular o'tmishdan kelgan madaniyat, marifat, tabiat yodgorliklarining yaxlid tizimga solingan yig'indisi bo'lib, amaldagi tartitiblargacha muvofiq saqlanadi va namoyish qilinadi.

1977-yildan buyon dunyoda ananaviy tarzda 18-may Xalqaro muzeylar kuni sifatida nishonlanib kelmoqda. Mustaqillik yillarida tarixiy merosimizni o'zida saqlovchi muassasa hisoblangan muzeylar rivojiga alohida etibor qaratildi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, yurtimiz tarixini, ko'p yillik merosini o'zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo'yicha bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi[1].

Yurtimiz ko'plab avliyolar, olimlar va daholar tug'ilib yashagan jannatmakon o'lka hisoblanib, unda turizm sohasi ham keng miqyosda rivojlangan. O'zbekiston turizm sohasiga nisbatan yangi bo'lsada u rivojlanishda ko'pgina sohalardan oldinga chiqib olish imkoniyatlari juda yuqoriligini zamonning o'zi isbotlamoqda. Hozirgi kunda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun bizning diyor juda

katta imkoniyat va salohiyatga egadir desak aslo xato qilmaymiz. Davlatimiz mustaqillikka erishgach hukumatimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirish uchun bir qancha yangi tamoyillar ishlab chiqildi. Shuningdek, 1992-yil 27- iyulda tashkil topgan O'zbekiston Respublikasining Turizm kompaniyasining asosiy vazifasi turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat qilib belgilandi, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov farmoni bilan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining tashkil etilishi turizmni rivojlantirishning milliy modulini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qildi[2]. 1993-yildan buyon O'zbekiston respublikasi "Xalqaro turizm" tashkiloti (UNWTO)ning teng huquqli a'zosi sifatida faoliyat yuritib kelayotganligi hamda vatandoshlarimizning turli davlatlarga tashrif . 2004 yildan (UNWTO)ning Samarqandda traskontinental magistral turizmni kordinatsiyasi bilan shug'ullanuvchi ofisi faoliyat yuritib kelmoqda[3].

Darhaqiqat, mamlakatimizda istiqlool sharofati bilan yangi muzeylarning tashkil etilishi, eng yirik va nufuzli Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi, Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyining ochilishi hukumatimiz tomonidan muzey va muzeyshunoslik sohasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasini naqadar to'g'ri ekanligidan guvohlik berib kelmoqda. Yangi muzeylarning tashkil etilishi bilan bir qatorda shu vaqtgacha ham faoliyat ko'rsatib turgan barcha katta-kichik muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqlool ruhida qayta tashkil etish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzu tahlili: Mamlakatimizning uzoq uch ming yillik buyuk davlatchilik tarixi shundan dalolat beradiki, har doim ham O'zbekiston o'zining betakror iqtisodiy salohiyati bilan tabiiy ravishda ko'plarni o'ziga rom etib kelgan. Keyingi bir yarim asr mobaynida xalqimiz o'zining behisob iqtisodiy-moddiy, madaniy-ma'rifiy boyliklaridan judo bo'ldi. Biroq, mazkur tazyiqlarga, yo'qotishlarga qaramasdan, o'zbek xalqi asl o'zligini saqlab qola bilganligiga ham tarix guvohlik beradi[4]. Muzey ijtimoiy vazifasiga ko'ra ilmiy tadqiqot-ma'rifat (muzeylarning ko'pchiligi asosan shu vazifani o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, ularni ommaviy muzeylar deb ham yuritishadi); tadqiqot (ilmiy-tadqiqot institutlari qoshida o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'taydi) va o'quv muzeylariga, yo'nalishi va kolleksiyalariga qarab tarmoq, o'lkashunoslik (kompleks) va memorial muzeylarga bo'linadi. Tarmoq muzey ishlab-chiqarish, fan, san'atning biror tarmog'iga tegishli bo'ladi (masalan, tarix muzeylari, zoologiya muzeylari). O'lkashunoslik muzeylari muayyan ma'muriy hududning tarixi, tabiati, xo'jaligi, san'ati, etnografiyasi va boshqa sohalarini kompleks aks ettiradi. Memorial muzeylar muhim tarixiy voqealar, atoqli arboblarga bag'ishlanadi[5].

Muzeylar faoliyatini takomillashtirish ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga olib keladi. Mamlakatimiz prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasida turizmni rivojlantirish borasidagi quydagi fikrlarni bildirib o'tdilar: "Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri-bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasiga ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan "kichik haj" dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim".

Zamonaviy iqtisodiyotning yangi va istiqbolli bo'g'ini turizm hisoblanadi. So'ngi paytlarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish orqali yurtimiz iqtisodiyotini yuqori bosqichlarga ko'tarish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa buyuk va navqiron o'tmishimiz tariximizni namoyon etuvchi ochiq osmon ostidagi muzey shahar deb nom qozongan tarixiy shaharlarga sayohatlar uyushtirish ommaviy harakatga aylanmoqda. Bu borada "Ochiq osmon ostidagi muzey" deya e'tirof etilgan qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xivada ham qator ishlar amalga oshirilmoqda[6].

2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar jumlasidan, "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturida ham turizmni rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalar belgilab olinib, ularning ijrosi yetarli darajada bajarilganligining isboti sifatida, mahalliy aholining mamlakat bo'ylab sayohatlarini rag'bartlantirish, sayohlar uchun qulay infra tuzilma yaratish, hududlarning sayohlik salohiyatini keng targ'ib qilish orqali ichki turizmni tizimli rivojlantirish amalga oshirildi[7].

Xorij sayohlarining tashrifi uchun keng sharoitlar yaratish, ularning sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va ko'rsatiladigan xizmat turlarini kengaytirish hisobiga turizm marshrut yo'nalishlarini kengaytirish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Mamlakatimizdagi moddiy-madaniy meros obyektlari huzuridagi turizmga tegishli infra tuzilmani shakllantirish, amalga oshiradigan diniy marosimlar uchun tegishli sharoitlarni yaratish orqali

ziyosat turizmini sohaning istiqbolli yo'nalishi sifatida takomillashtirish va rivojlantirish ham kun tartibidagi asosiy masalaga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak muzeysunoslikka berilgan yuksak e'tiborning samarasi o'laroq mazkur sohada quydagi misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi:

-muzeysunoslik sohasini rivojlantirish, takomillashtirishga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda muzeylar faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari yaratildi.

-Bugungi kunda muzey ishini samarali yo'lga qo'yish hamda muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida jamg'arma tashkil etildi.

- Hozirgi kunga qadar O'zbekiston muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga namoyish etish bo'yicha qator ko'rgazmalar jahon muzeylarida tashkil etildi[8].

Yuqorida sanab o'tilgan soha rivojidagi muvofaqqiyatlar O'zbekistonda muzeysunoslik sohasini taraqqiy etishga mustahkam zamin yaratgan omillardir. Tashkil etilgan va etilayotgan ko'plab muzeylar yosh avlodni tariximiz, moddiy va madaniy merosimizni naqadar chuqur ildizga ega ekanligini singdirgan holda, ularni vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ulari bilan tarbiyalashga xizmat qiladi[9].

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 16-fevraldagi Buxoro shahriga qilgan tashrifi chog'ida viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish konsepsiyasi asosida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Buxoro o'zining betakror tarixiy obidalarini, osori-atiqalari, asrlar osha davom etib kelayotgan milliy hunarmandchilik an'analari bilan yurtimiz turistik jozibadorligini oshirishda ulkan salohiyatga ega ekanligini ta'kidladi. 2018-yilda viloyatda turizmni yanada rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq 61-ta loyihani hayotga tatbiq etish ko'zda tutilgan edi. Jumladan, 32- ta mehmonxona, 12-ta motel, 10-ta istirohat bog'lari barpo etilishi, "Buxoro Palas", "Varaxsha" va "Zarafshon" kabi mehmonxonalarning zamonaviy tarzda rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, ularning aksariyati deyarli bajarildi. Bundan tashqari, turizm bo'yicha xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, restoranlar qurish, sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalari xarid qilish, madaniy meros obyektlarini tadbirkorlarga ijaraga berish, havo sharida sayohatni tashkil qilish, G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent va Jondor tumanlarida qishloq turizmini yo'lga qo'yish masalalari ham bugungi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Shavkat Mirziyoyev eski shahar qismining turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari bilan tanishar ekan, ushbu hudud tom ma'noda Buxoroning yuragi bo'lishi kerakligini ta'kidladi[10].

Ona vatanimiz o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng, turli sohalarda o'zini namoyon eta oladi. Shu jumladan, ko'plab qadimiy yodgorliklarga ega bo'lgan Buxoro viloyatidagi yetti pir ziyoratgohlari, eski shahardagi madrasalar, Ark qo'rg'oni, Minorai Kalon, Labi Hovuz va shu kabi ko'plab obidalarini qayta qurish va tiklash ishlari boshlandi. Bu kabi ishlar nafaqat Buxoroda, balki, butun O'zbekiston bo'ylab olib borildi va shu tariqa xalqning tarixini, madaniyatini va ota-bobolarining kim ekanliklarini anglab olishga yo'l ochildi. Mustakillik yillarida muzeylarga bo'lgan e'tibor va talab ortdi. Bu, albatta, muzeylarning ijtimoiy vazifalari bilan bog'liq. O'zbekiston hududida mavjud muzeylar tizimi yanada takomillashdi, ularning xalqimiz ma'naviy axloqiy kamolotida tutgan o'rni oshdi[11]. Muzey fondida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlar avaylab asrab o'rganilib, boyitib borildi va dunyoga olib chiqildi. O'tgan davr mobaynida muzeylarning to'plovchilik va noshirlik faoliyati ham rivojlanib o'sdi. Muzeylarning to'plovchilik faoliyatiga ilmiy etnografik, arxeologik izlanishlar natijasida topilgan ilmiy asarlar, qo'lyozmalar yig'ildi. Bundan tashqari, respublika miqyosida muzeylar faoliyati maxsus jurnallarda yoritib borildi va nashriyotlarda bukletlar, plakatlar chiqarish, ko'rgazmalar tashkil etish va uslubiy kitoblarda yoritib borish kabi ko'plab ishlar amalga oshirildi[12].

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida 1200 dan ortiq muzeylar bo'lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. Shu bilan birga, o'nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arboblari uy muzeylari mavjud. Bu muzeylar xalqimizning uzoq tarixidan hikoya qiluvchi, moziydan sado beruvchi va ma'naviyat maskanlari bo'lib, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g'urur va iftixorni yuksaltiruvchi ulug' qadamjolar bo'lib qolmoqda.

Natijalar va mulohazalar: Bizning vatanimiz turistik mamlakat hisoblanib undagi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlariga tashrif buyurur ekansiz, xuddi ertakka tushib qolganday bo'lasiz, chunki bu shaharlarning o'zi ochiq osmon ostidagi muzeylar sanaladi. Yurtimizning nafaqat bu shaharlari, balki vodiylar tomonlarining o'zgacha tabiati, manzaralari, undagi yetishib chiqayotgan ne'matlar, o'zbek xalqining milliy taomlari butun dunyoni o'ziga jalb etib kelmoqda. Turli mamlakatlardan tashrif buyurgan sayyohlar bilan suhbatlashar ekansiz, ularning hammasi bir gapni takrorlaydi: "O'zbekistonga tashrif buyurur ekanman, bu yurtning mehmondo'stligi, qadimiy yodgorliklari, san'ati, ajoyib taomlari meni lol qoldirdi": deb fikr bildirishadi[13].

Mamlakatimizda muzey sohasini qo'llab quvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra «2017 - 2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. qarorini ijro etish yuzasidan Davlat muzeylarining ishlab chiqiladigan yangi konsepsiyalari, muzey ashyolarini ishonchli saqlash, tashrif buyuruvchilar, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, arxitektura-rejalashtirish, interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e'tibor qaratgan holda har bir muzey binosining eskiz loyihasini muzeyning yo'nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirish chora tadbirlari belgilab olindi [14].

O'sha yili qabul qilingan eng muhim qarorlardan yana biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017-yil 22-noyabrda qabul qilindi, unga ko'ra barcha viloyatlardagi oliygohlar tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyining tashkil etilishi belgilab qo'yildi. Buxoro davlat universitetida ham ushbu qaror ijrosi bo'yicha qator tashkiliy va ilmiy izlanishlar olib borilishi natijasida 2018-yil 18-may kuni Buxoro Davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tmoq joizki, Buxoro Davlat universiteti tuzilmasidagi ushbu muzey respublikamizda birinchilar qatorida tashkil etilib, hozirda ekspozitsiyasi yangi eksponatlar bilan boyib kelayotgan muzeylar qatoridan munosib o'rin egallab kelmoqda.

Xulosa: Biz bir narsani hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak-ki muzeylarning asosiy vazifalaridan biri bu turli toifadagi tashrif buyuruvchilarni, ayniqsa, o'quvchi yoshlarni qo'shimcha bilim olishiga qiziqishlarini oshirish maqsadida muzeyga kelishadi, demak ularga ekiskursiyalarning sifatli va qiziqarli olib borilishini ta'minlash eng asosiy vazifalardan biriga aylanmog'i lozimdir. Chunki, yoshlarimiz qalbida ma'naviy me'rosimizga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otishda muzeylar ta'sirchan vosita hisoblanadi. Bu o'rnida bugungi muzeylarimiz nafaqat xalqimiz tarixidan hikoya qiluvchi osori-antiqalarni saqlaydigan, namoyish qiladigan, balki, ta'lim tizimi rivojida navqiron avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyat dargohi ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Shu bilan birgalikda yosh avlodni ajdodlari tarixi, yuksak ma'naviyati va madaniyati bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda milliy g'urur his-tuyg'ularini tarbiyalash, vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi dolzarb masaladir.

Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish bilan umum madaniy ishga o'z hissalarini qo'shadilar. Tarixiy xotirani shakllantirish, uni rivojlantirish, shu bilan birga hozirgi avlod ruhida milliy g'urur tuyg'ularini paydo qilish ishida barcha madaniy-ma'rifiy muassasalar qatorida muzeylar ham o'ziga yarasha hissasini qo'shmoqda. Darslik, qo'llanma kitoblardan biz nazariy bilimlarni olar ekanmiz, shu haqdagi amaliy ko'rgazmalar, ashyoviy dalillar namoyish etilgan muzeylar bevosita ana shu nazariy bilimlarni yanada mustahkamlashda xizmat qilishini doimo yodda tutmog'imiz darkordir.

Muzeylardagi ashyolar yangi avlodga ajdodlari o'tmishi, hayoti, yuksak ma'naviyatidan darak berib, uning vositasida Vatanga bo'lgan muhabbat, ota-bobolari qoldirgan madaniy merosga nisbatan hurmat, e'zoz, ularga munosib vorislar bo'lish tuyg'usini uyg'otadi. Shuningdek, yoshlarni odoibu-axloqqa, halolliqqa poklikka, botirlikka, mehr-muruvvatli bo'lishga, sabr-qanoatga chaqiradi. Madaniy merosimizni har tomonlama o'rganish jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yigit va qizlarda milliy g'ururning, milliy iftixor tuyg'usining shakllanish jarayonini amalga oshiradi [15].

Bizlar yoshlarni muzeylarga ko'proq jalb qilib, ularda muzeyga bo'lgan qiziqishni uyg'otishimiz uchun, muzeylarni shunchaki ko'rsatmasdan, u yerdagi har bir eksponat bilan alohida tanishtirishimiz yoki tarixiy voqealarni aks etgan hujjatli film orqali tariximiz va ota-bobolarimizning vatan farovonligi yo'lida olib borgan fidokorona xizmatlari bilan tanishtirib, hozirgi zamonamizning shukrini qilib, yurtimizga kerakli shaxs bo'lib yetishishga undamog'imiz lozim [16].

Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati va turizm yuqori darajada ilgarilab o'sdi, albatta bularning barchasiga ko'plab mashaqqatlar bilan erishildi. Bu mashaqqatlar ortida davlatimiz rahbarining muzeyshunoslik sohasini qo'llab-quvvatlash borasida olib borgan samarali ishlari katta ahamiyatga ega, chunki yurtimiz ravnaqi va tinchligi yo'lida turli davlatlar bilan o'zaro hamkorlik hamda manfaatli shartnomalarni imzolab, xalqimiz uchun ko'plab imkoniyatlar yo'lini ochib bermoqdalar, shuning uchun bizlar bu imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda ish yuritib vatanimiz ravnaqi yo'lida xizmat qilmog'imiz lozim deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqova N.S. O'zbekistonda muzey ishi. Toshkent: Fan, 1975. b-58

2. <https://lex.uz/docs/-514856>
3. Almeev R.V. Buxoro muzey shahri. – Toshkent: Fan, 1999. – P. 149 .
4. M.B.Bekmurodova, M.X.Rashidova Muzeysunoslik. Toshkent, 2005-yil
5. B.B. Boltayev Muzeysunoslik. Buxoro: Durdona, 2016. -14 b
6. Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси – Тошкент, 1/2014.- 8 bet
7. Ш.М.Мирзиёев: Бундай маънавий хазина бошқа ҳеч қерда йўқ. 2019 йил, 29 март.
www.UzA.uz//
8. Muzey va turizm rivojining yangi bosqichlari //www.muzey.uz
9. О‘збекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 21 апрелдаги “О‘збекистон тарихи музеи фаолиятини ташкил этиш то‘ғ‘risida”gi qarori 1992 г. <https://lex.uz/docs/424564>
10. Sh.M.Mirziyayevning Buxoroga tashrifi.//www.google.com
11. Альмеев Р.В. Из истории создания и развития Бухарского музея заповедника // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 2000. – № 1. – Стр.83.
12. Садыкова Н.С. Музей истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека // Наука в Узбекистане. Т.П. Общественные науки. Ташкент:Фан, 1974.-(Общ стр.168).Стр-34-35
13. Таджиходжаев З., Жўраев А., Ҳамроев Ҳ. Туризм соҳасига етук кадрлар тайёрлаш//Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. 1/2014.-29 bet
14. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora tadbirlar to‘g‘risida”2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarorini ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qarori. //www.lex.uz
15. Qayumov A. Muzey ishining fidoyisi. Buxoro, 2000 y.- 37 b
16. M.B.Bekmurodova, M.X.Rashidova Muzeysunoslik. Toshkent, 2005-4 bet